
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Kadastr pasportini shakllantirish qaysi holatlarda bepul rasmiylashtirilishi haqida bilasizmi?

Hukumatning 535-son qaroriga asosan quyidagi hollarda kadastr pasportini rasmiylashtirish bepul amalga oshiriladi:

Ko'chmas mulk obekti bo'yicha birlamchi kadastr yig'majildi (pasporti) mavjud bo'lib, begonalashtirilganda yoki obektda o'zgarishlar (rekonstruksiya, qo'shimcha va alohida qurilish) mavjud bo'lmaganda;

Ko'chmas mulk obektining bir qismi begonalashtirilganda obektning qolgan qismiga yoki rekonstruksiyasiz toifasi o'zgarganda;

Kadastr yig'majildi (pasporti) yo'qolganda (yaroqsiz holga kelganda va ko'chmas mulk obekti ko'rsatkichlari o'zgartirilmasdan).

Mazkur davlat xizmatidan Davlat xizmatlari markaziga borgan holda yoki YalDXP (my.gov.uz) orqali elektron tarzda foydalanishingiz mumkin.

Yaqinlaringiz bilan foydali ma'lumotlarni bo'lishishni unutmang!

Faridun Mastonov - So'x tuman adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-02 15:54:28